



2019 yilning yanvar - mart oylarida Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **4558,4 mlrd.so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi **94,2 % ni** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish **653,0 mlrd.so'mni**, o'sish sur'ati **103,3 % ni** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **14,3 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **15,1 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar - mart oylarida viloyat korxonalaridan 4558,4 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 94,2 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida, sanoat ishlab chiqarish indeksi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda - 90,6 % ni, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida - 95,5 % ni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda – 105,8 % ni va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishda – 95,4 % ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar - mart oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi







Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019 yilning yanvar - mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2022,7 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 44,4 % ni tashkil etdi.

Tog' - kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'iycha o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan neft qazib olish hajmining - 7,2 % ga, gaz kondensati – 0,6 %, tabiiy gaz – 3,4 % ga, chaqiq tosh – 42,0 % ga, shag'al – 11,7 % ga, qum – 27,4 % ga kamayganligini kuzatish mumkin.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish





2018 yil yanvar - martda ishlab chiqarilgan	Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2019 yil yanvar - martda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
	Neft, ming tonna		
143,2		132,8	92,8 ↓
	Tabiiy gaz, mln.kub.metr		
8546,8		8257,0	96,6 ↓
	Gaz kondensati, ming tonna		
356,2		354,1	99,4 ↓
	Shag`al, ming tonna		
43,5		38,4	88,3 ↓

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019 yilning yanvar - mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1885,7 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 41,4 % ni tashkil etdi.

O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida o'tgan yilning mos davriga nisbatan polietilen – 1,5 % ga, ip-kalava – 15,6 % ga, plastmass quvurlar – 21,8 % ga oshganligini, paxta tolasi, o'simlik yog'i (tozalangan) va alkogol ichimliklar ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018 yil yanvar - martda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yil yanvar - martda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
1093,0	Plastmass quvurlar, tonna 	1331,5	121,8 ↑
34,7	Polietilen, ming tonna 	35,2	101,5 ↑
658	Alkogol ichimliklar, ming. litr 	614	93,3 ↓
4501,0	Ip-kalava, tonna 	5204,0	115,6 ↑

2018 yil yanvar - martda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yil yanvar - martda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
---	---	---	----------------------

Paxta tolasi, tonna

51019



29419

57,7 ↓

O'simlik yog'i (tozalangan), tonna

8963,1



6064,7

67,7 ↓



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.

2019 yil yanvar - mart oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 614,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat

mahsulotlari hajmining 13,5 % ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 35,9 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni) tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlarning – 12,7 % ga oshganligi, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish va utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlarning esa – 21,3 % ga kamayganligi kuzatildi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


2019 yilning yanvar - mart oylarida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 653,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,3 % ni tashkil etdi, jami sanoatdagi ulushi esa 14,3 % ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar -mart oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2019 yil yanvar - mart oylarida iste'mol mollari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 58,9 %, nooziq-ovqat mahsulotlari - 41,1 %, va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo – 2,5 % tashkil etdi.


Yanvar - mart oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da



Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Muborak (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 34,4 % ulushini), G'uzor (20,0 %), Nishon (11,7 %) tumanlari, Qarshi shahri (9,7 %), Koson (4,6 %) va Qarshi(4,5 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


2019 yilning yanvar - mart oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da




Shu bilan birga eng kam ulush Chiroqchi (1,1 %), Kitob (1,3 %), Shaxrisabz (1,4 %), Mirishkor (1,4 %), Qamashi (1,5 %) va Yakkabog' (1,6 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Jami sanoat mahsulot ishlab chiqarish hajmiga Muborak tumani 1569,3 mlrd. sumni, Guzor tumani 910,1 mlrd. sumni, Nishon tumani 534,3 mlrd. sumni va Qarshi shahri 442,5 mlrd. sumni sezilarli darajada tashkil etdi.

2019 yilning yanvar - mart oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmi



2019 yil yanvar - mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha istemol mollarning o'sish sur'atlari, 2018 yil yanvar - mart oylariga nisbatan %




Iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi tumanida Dexqonobod (2018 yil yanvar - mart oylariga nisbatan 108,5 % ga), Shaxrisabz tumanida (108,1 %), Qarshi tumanida (107,4 % ga), Guzor tumanida (107,1 % ga) va Mirishkor tumanida (106,9 % ga) oshdi.

Shuningdek, Iste'mol tovarlari hajmining eng katta qismi Qarshi shahar (iste'mol tovarlari hajmida 31,7 %), Koson (10,3 %), Shaxrisabz (8,4 %) tumanlarida va Shaxrisabz shahrida (7,7 %) ishlab chiqarildi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Muborak tumanida (18462,2 ming so'm), G'uzor tumanida (4559,6 ming so'm), Nishon tumanida (3585,9 ming so'm) va Qarshi shahrida (1630,5 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (1415,9 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

2019 yilning yanvar – mart oylarida shahar va tumanlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4,2 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 15,1 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Kitob tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chiroqchi tumanida (75,4 %), Shaxrisabz tumanida (75,1), Qamashi (70,6 %), Yakkabog' tumanida (60,1 %), Qarshi (53,8%) va Shaxrisabz (47,8 %) shaharlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Muborak tumanida (0,9 %), G'uzor tumanida (1,7 %), Nishon tumanida (2,9 %) va Dehqonobod tumanida (9,4 %) kuzatildi.


2019 yilning yanvar - mart oylarida tumanlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.

Bugungi kunda viloyatda 2 mingdan ziyod sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 609 tasi Qarshi shahrida, 373 tasi Kitob tumanida, 269 tasi Shaxrisabz shahrida, 263 tasi Yakkabog` tumanida, 225 tasi Qarshi tumanida, 218 tasi Chiroqchi tumanida, 159 tasi Qamashi tumanida, 150 tasi Shaxrisabz tumanida, 153 tasi Koson tumanida, 130 tasi Guzor tumanida, 99 tasi Kasbi tumani, 60 tasi Muborak tumani, 95 tasi Nishon tumanida, 59 tasi Dehqonobod tumanida va 63 tasi Mirishkor tumanlarida joylashgan.

2019 yil 1 aprel holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni



Joriy yilning yanvar - mart oylarida viloyatda 452 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 80 tadan ortiq Qarshi shahriga, 40 tadan ortiq Chiroqchi va Yakkabog` tumanlariga, 30 tadan ortiq Shaxrisabz, Kitob, Nishon, Qarshi tumanlariga, 20 tadan ortiq Kasbi, Guzor tumanlariga va Shaxrisabz shahriga, 10 tadan ortiq Dexkonobod, Qamashi, Koson va Mirishkor tumanlariga to'g'ri keladi.